

**TO'LOV BALANSINING MAMLAKATDAGI INVESTITSIYA JARAYONLARIGA
TA'SIRI**

Maxmudjanova Malika Djamshiddinovna
O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi,
Moliya va moliyaviy texnologiyalar fakulteti magistranti

Ilmiy Rahbar: Achilov U. U.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada mamlakat to'lov balansi, tarkibiy tuzilishi, to'lov balansining mamlakatning investitsiyalarga ko'rsatayotgan ta'siri haqida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: Xalqaro investitsiyalar, to'lov balansi, kapital bilan bog'liq operatsiyalar hisobi, moliyaviy operatsiyalar, xorij investitsiyalari.

Kirish

To'lov balansi — bir mamlakatdan boshqa mamlakatlarga to'lovlar ko'rinishidagi pul mablag'lari harakatini aks ettiradigan jadval hisoblanadi. To'lov balansi muayyan bir muddat davomida mamlakat chet ellarga to'lagan va xuddi shu davr mobaynida mamlakatga chet eldan tushgan to'lovlar summalari nisbatini tavsiflash vazifasini o'taydi. To'lov turkumiga tashqi qarz, uning foizi, chetdan olingan import tovarlar va xorij investitsiyalari, xorijda diplomatik ishlarni, xizmat haqlari, iqtisodiy aloqalarni yuritish xarajatlari, fuqarolar va qo'shma korxonalarining chet elga pul o'tkazmalari va boshqa kiradi. Ma'lumki, chetdan keladigan tushumlar boshqa davlatlar qaytargan qarzlari, ularning foizi, xorijdagi korxonalar va tashkilotlardan o'tkazilgan foyda, eksport qilingan tovarlar va xizmatlar haqi, boshqa yurtlik fuqarolar, korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, xalqaro yoki mintaqaviy tashkilotlar o'tkazgan puldan iborat bo'ladi. Investitsiya — xususiy, korporativ xo'jalik va tashkilotlar, fuqarolar mablag'lari, shu jumladan, shaxsiy va jalb qilingan mablag'lar hisobidan qo'yiladi. Investitsiya qo'yilish shakliga qarab moliyaviy (portfel) va real (ishlab chiqarish) investitsiyaga bo'linadi. Moliyaviy (portfel) investitsiya — aksiya, obligatsiya va b. qimmatli qog'ozlarni sotib olishga qo'yiladigan investitsiya, ; real investitsiya — moddiy ishlab chiqarish (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va b.) sohasiga, moddiy-ashyoviy faoliyat turlariga uzoq, muddatli mablag'lar qo'yish shakllarida amalga oshiriladi.

Jahon tajribasida investitsiyani moliyalashtirish turli usul va shakllarda, shu jumladan, korxonalarini aksiyadorlashtirish va aksiyalarni joylashtirish, byudjet mablag'lari, bank kreditlari, lizing, bevosita chet el investitsiyalari, ipoteka, byudjetdan tashqari maxsus fondlar, amortizatsiya va xo'jalik yuritish sub'yektlarining boshqa mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Shuningdek, chetga berilgan to'lovlarga nisbatan chetdan kelgan to'lovlar ko'p bo'lsa To'lov balansi faol hisoblanadi. Bunday hodda mamlakatga valyuta ko'proq oqib keladi, uning valyuta fondi o'sadi, aks hodda To'lov balansi passiv bo'lib, valyuta chiqib ketadi va valyuta

fondi qisqaradi. To'lov balansining muhim qismini tovarlar va xizmatlar eksport va importi — savdo balansini tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminov, D.G'ozibekov, D.Tojiboyeva, Maxmudovalar tomonidan investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan va munosabat bildirilgan. A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminovlar tomonidan investitsiyalarning mazmun-mohiyati bo'yicha bayon etilgan ta'rifda: «investitsiyalar - foyda olish hamda ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar va intellektual boyliklar deb ta'riflangan. Olimlarimizning bunday ilmiy izlanishlarini tahsinga loyiq desak yangilishmaymiz. Endilikda O'zbekistonda xorijiy kelishuvlar doirasidagi investorlar bilan ishlash bo'yicha yangi tizim joriy etilishi ta'kidlandi. Bunda Investitsiya vazirligida har bir yangi investorga hamrohlik qilish uchun investitsiya menejeri lavozimi tashkil etiladi va bevosita vazirga bo'ysunadi. Ular xorijiy investorlar bilan doimiy aloqada bo'ladi va kelib tushgan masalalarni hal qilib boradi.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar va yangilanishlarni bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan amalga oshirish va bu jarayonda davlatning bosh islohotchivazifasini bajarishi mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tishida o'ziga xos turtki bo'ladi. Bu jarayon investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishni tartibga solish borasida ko'plab yangi va mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhim qarorlar qabul qilishni talab qiladi. Moliyaviy tahlilning maqsadi va vazifalari. Moliyaviy tahlil turlari. Moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan narxlar; narxlarning tebranishi; narxlar to'g'risidagi axborot manbalari; narxlarni prognoz qilish; ichki va jahon narxlari. Inflyatsiya, moliyaviy tahlilda inflyatsiya tushunchasi. Korxonani moliyaviy tahlili: firma yoki loyiha bazaviy tashkilotining «loyiha bilan» va «loyihasiz» vaziyatlardagi moliyaviy ahvoli; foyda va zararlar, mablag'lar harakati to'g'risida va balans hisobotlar tayyorlash; samaradorlik normasi va moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash; inflyatsiyani firmaning moliyaviy ahvoriga ta'siri.

Muhokama: Moliyaviy tahlil va uning uslublari foyda va zarar hisoboti. Pul tushumlari va xarajatlari prognozi. Moliyaviy tahlil; loyihaga sarf etiladigan xarajatlar va undan olinadigan daromadlarni aniqlash; xarajatlar va daromadlar oqimini prognoz qilish; xarajatlar va daromadlar tahlili, minimal xarajatlar tahlili, xarajatlar samaradorligi, boshqa tahlillar vositasida olingan natijalarni izohlash.

Investitsiya menejerlari" bevosita vazirga bo'ysunadi va xorijiy investorlar bilan doimiy aloqada bo'lib, kelib tushgan masalalarni hal qilib boradi. Xorijiy kelishuvlar doirasidagi investorlar bilan ishlash bo'yicha yangi tizim joriy etiladi.

Jahon tajribasida to'lov balansini hisoboti asosan Markaziy bank yoki Statistika qo'mitai tomonidan shakllantiriladi va har chorakda foydalanuvchilarga taqdim qilinadi. moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar sifatida ta'rillanadi.

Natijalar: Iqtisodiy tahlil maqsad va vazifalari. Milliy iqtisod manfaatlarining ustuvorligi. Iqtisodiy tahlilda daromad va xarajatlar. Iqtisodiy va moliyaviy baholar. Ma'lumki, bozor narxlari va muqobil qiymatlar; yashirin narxlar va almashinuv kursi. Shartli tashqi savdo tovarlari, chegaraviy narxlar. Shartli notashqi savdo tovarlari; tashqi savdoga haqiqatda jalb qilinmagan shartli tashqi savdo tovarlari; shartli tashqi savdo tovarlari uchun aylantirish koeffitsiyentlaridir.

O'zbekiston Investitsiya vazirligida har bir yangi investorga hamrohlik qilish uchun "investitsiya menejeri" lavozimi joriy etiladi. Ular bevosita vazirga bo'ysunadi va xorijiy investorlar bilan doimiy aloqada bo'lib, yuzaga kelgan masalalarni hal qilib boradi. Jahon tajribasida to'lov balansi hisoboti asosan Markaziy bank yoki Statistika qo'mitasi tomonidan shakllantiriladi va har chorakda foydalanuvchilarga taqdim qilinadi.

Investitsion loyihani ishlab chiqish jarayonida institutsional tahlilning asosiy maqsadi va vazifalari. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash sohasida 1994-yilda tashkil etilgan „O'zbekinvest“ eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi faoliyat olib boradi. Tahlil qilinishi zarur bo'lgan asosiy muammolar: mavjud institutlarga baho berish; ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash; qonunlar, qonuniy aktlar va siyosatni o'rganish; ularning loyihani amalga oshirishga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'siriga baho berish.

Shavkat Mirziyoyev: Sizlar o'zingiz istagan tinchlik va barqarorlik, qulay investitsiya muhiti hamda zarur kafolatlarni aynan bizning yurtimizda topasiz. Bunga men Prezident sifatida kafolat beraman. Yangi O'zbekiston Sizning biznes faoliyatingizda alohida yorqin iz qoldiradigan makon bo'lib xizmat qiladi, deb ishonaman!

Bilamizki, mavjud institutlarning ish yuritish tartibi, ularning tashkiliy strukturasi o'zgarishlar kiritish, resurslar bilan ta'minlash borasida takliflar kiritish; loyihalarni tayyorlash va amalga oshirishda ijtimoiy va xususiy sektorning nisbiy roli; tegishli agentliklar ichida shuningdek, bu agentliklar bilan markaziy va mahalliy hukumat o'rtasidagi muvofiqlashtirish va nazorat qilish mexanizmi. Jahon banki loyihalarida institutsional tahlil tartibi va tajribasi.

Xulosa:

To'lov turkumiga tashqi qarz, uning foizi, chetdan olingan tovarlar va xizmatlar haqi, xorij investitsiyalari, xorijda diplomatik ishlarni, iqtisodiy aloqalarni yuritish xarajatlari, fuqarolar va qo'shma korxonalarining chet elga pul o'tkazmalari va boshqa kiradi. Keyingi davrda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda investitsion hamkorlik rivoj topdi. Bunday hamkorlikning real, moliyaviy, intellektual (litsenziyalar, hamkorlikda bajariladigan ilmiy ishlanmalar va b.g.a mablag' sarflash) ko'rinishlari bor. Shuningdek, chetdan keladigan tushumlar boshqa davlatlar qaytargan qarzlarni, ularning foizi, xorijdagi korxonalar va tashkilotlardan o'tkazilgan foyda, eksport qilingan tovarlar va xizmatlar haqi, boshqa yurtlik fuqarolar, korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, xalqaro yoki mintaqaviy tashkilotlar o'tkazgan puldan iborat bo'ladi. Ma'lumki, Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi.

Qayd etilishicha, investitsiya jalb qilish bo'yicha Vengriya, Pokiston, Tailand, Chexiya va Yaponiya bilan hamkorlikda o'sish kuzatilgan. Bu davlatlardan o'tgan yili 40 mln dollarlik investitsiya jalb qilingan bo'lsa, joriy yilning o'zida bu ko'rsatkich 450 mln dollarga ko'paygan.

Lekin, Misr, Eron, Ispaniya, Hindiston va Belgiya davlatlaridagi elchilar faoliyatida hali natija ko'rinmayotgani ta'kidlandi.

Ular milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishini rag'batlantirgan holda jalb qilinadi. Lekin chet el kapitalini jalb qilishning hamma shakllari ha moliyalashtirishning tashqi manbai bulmasligi mumkin. Bu birinchi navbatda foiz to'lovlari bilan qaytarishni talab etadigan va qarzlarga taaluqli. Chunki, chet el kreditlari va xalqaro moliya institutlari qarzlari ma'lum vaqt o'tgach asosiy qarz bilan birga belgilangan foizlarining qaytarilishini talab etadi. Chetdan jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar bilan chet eldan kiritiladigan kreditlarning o'ziga xos farqlari mavjuddir. Bu borada xorijiy investitsiyalar risklar doirasi bilan chet el kreditlari risklari kengligi farqlanadi. Chetga berilgan to'lovlarga nisbatan chetdan kelgan to'lovlar ko'p bo'lsa To'lov balansi faol hisoblanadi. chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, va moliyaviy, intellektual boyliklaridir. To'lov balansi saldosi ijobiy. Investitsion hamkorlik umumjahon va milliy muammolarni hal qilishga xizmat qiladi. Jahondagi bevosita investitsiya faol o'sib bormoqda: 1980-yillar o'rtalarida jahon bo'yicha umumiy yillik investitsiya hajmi 450 milliard dollarni tashkil qilgan. Bunday hodda mamlakatga valyuta ko'proq oqib keladi, uning valyuta fondi o'sadi, aks hodda To'lov balansi passiv bo'lib, valyuta chiqib ketadi va valyuta fondi qisqaradi.

Shuningdek, mamlakatlar o'rtasidagi aktivlar va majburiyatlar bilan bog'liq operatsiyalar to'lov balansining moliyaviy operatsiyalar hisobida yuritiladi. Moliyaviy hisob to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, portfel investitsiyalar, moliyaviy derivativlar (svop, opsiya va h.k.), boshqa investitsiyalar (valyuta va depozitlar, savdo kreditlari hamda avanslari va boshqalar) va rezerv aktivlaridan iborat.

Nazariy jihatdan, joriy hamda kapital bilan bog'liq operatsiyalar hisoblari saldosi yig'indisi moliyaviy hisobning saldosi teng bo'lishi lozim. Ammo, amaliyotda hisobot shakllanishida foydalaniladigan ma'lumotlar turli manbalardan olinishi, aktiv va majburiyatlar qiymatining o'zgarishi va boshqa o'zgarishlar to'lov balansi qismlarining nomutanosibligiga olib keladi. Jahon tajribasida to'lov balansi hisoboti asosan Markaziy bank yoki Statistika qo'mitasi (Statistik idora) tomonidan shakllantiriladi va har chorakda foydalanuvchilarga taqdim qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vaxabov A.V; Sirojiddinova Z.X. Iqtisodiy-moliya. 2007
2. Sharifxodjayev M.Sh; Tulyaganova N.B. Investitsiya. 2001
3. Davlat moliyasi tizimi. Normativ-huquqiy hujjatlar to'plami, 3 jildlik, Toshkent. 2002.
4. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X, Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.: «Moliya». 303 b.
5. Neshitoy A.S. Investitsiyalar: Darslik. 4-nashr. M.:2006.
6. Z. Oripov, Investitsiyalar iqtisodiyot rivojida muhim omil, Toshkent.